

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№11

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 433 sahifa.
2025-yil, noyabr*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

YASHIL TRANSPORT SIYOSATINING BARQAROR RIVOJLANISH VA TARMOQLARARO INTEGRATSIYADAGI O'RNI	21
Rahmonov Rasul Ne'matovich	
BANK AKTIVLARI VA PASSIVLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	34
Safarov Sanjar Ravshan o'g'li	
O'ZBEKISTONNING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISH STRATEGIYALARI	38
Madraximova Irodaxon Sherzodbek qizi	
HUDUDIIY XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA MENEJMENT SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING RAQAMLI TRANSFORMATSIYA MODELII	43
Maxmudova Nozimaxon Baxriddinxonovna	
DAVLATNING BUDJET SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	50
A.A. Ismailov	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGINING MEXANIZMINI SAMARALI TASHKILLASHTIRISHDA MOLIYAVIIY MANBALARNI SHAKLLANTIRISHNI YO'NALISHLARI	56
Mansurov Mansur Alisherovich	
ANTIKRIZISLI BOSHQARUV TIZIMLARIDA RANGLI SIGNAL MEXANIZMLARINING FUNKSIYALARI	61
Aliqulov Aziz Haydarjonovich	
XODIMLARNI MOTIVATSIYALASHNING XALQARO MODELLARINI O'ZBEKISTON KORXONALARIDA QO'LLASH IMKONIYATLARI	66
Yormamatov Qodirjon Juraqulovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT OMILLARI VA ULARNING QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARINING SAMARADORLIGIGA TA'SIRI	71
Yaxshiyev Shahzod Sherari o'g'li	
OLIIY TA'LIM MUASSASALARI VA MEHNAT BOZORI INTEGRATSIYASI BO'YICHA XORIJIY TAJIRIBALARI	78
Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich	
YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHDA RIVOJLANGAN VA RIVOJLANAYOTGAN DAVLATLAR TA'JIRIBASI	84
Aripov Abdulaziz Sakijonovich	
YASHIL ENERGETIKA RIVOJLANISHINING IQTISODIIY SAMARADORLIGINI EKONOMETRIK BAHOLASH	89
Bobokulova Muhabbat Muhammadiyeva	
ELEKTRON TO'LOVLAR VA POS TIZIMLARI — KICHIK BIZNESDA SAMARASI VA XAVFLARI	93
To'liqinov Dilshodxo'ja Olim o'g'li	
MINTAQADA RAQAMLI IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING ISTIQBOLII YO'NALISHLARI	98
Yusubov In'omjon Ikram o'g'li	
SOLIQ SIYOSATINI RAQAMLI BOSHQARISH ORQALI BUDJET DAROMADLARINI BARQARORLASHTIRISH STRATEGIYASI	103
Xodjimatomov Xamidullo Mamirjonovich	
OZIYQ-OVQAT TOVARLARI B2B BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIIY MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH	108
Hayitboyeva Ullijon Bobonazar qizi	
FARMASEVTIKA SANOATIDA INVESTITSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINI BAHOLASH	113
Yaqubov Timurbek G'anibekovich	
SHAXSNI OVOZI ASOSIDA IDENTIFIKATSIYALASH VA AUTENTIFIKATSIYALASH ALGORITMLARI	123
Ozoda Sabirova Shermamaxamatovna	



YASHIL IQTISODIYOT — BARQAROR RIVOJLANISH GENERATORI	129
Berdibekova Dilfuza Xoldorbekovna	
CHET EL MEHMONXONA TARMOQLARINING BRENDING STRATEGIYALARINI O'RGANISH	133
Ergashev Oybek Mamarasul o'g'li	
MILLIY IQTISODIYOTDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SOHASINING MOLIVAVIY SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY JIATLARINI TAKOMILLASHTIRISH	144
Arzikulov Otabek Ali o'g'li	
TRANSPORT TIZIMI SOHASI KORXONALARINING INNOVATSION SALOHİYATINI BAHOLASH YO'NALISHLARI	152
Ismailov Akmal Maxsudovich, Abilqosimova Shaxlo Sodiқ qizi	
MEHMONXONALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA XODIMLARNING O'RNI VA AHAMIYATI	158
Abduxamidov Sarvar Adxamovich, Normurodov Tal'at Normurod o'g'li	
KORXONALARDA HR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	163
Aminova Shaxnoza Aziz qizi	
JAHON IQTISODIYOTIDA OZIQ-OVQAT XAFSIZLIK RO'LI	168
Abdusamatov Barkamol Rustamjon o'g'li	
ТУРИСТИЧЕСКИЕ РЕСУРСЫ КАРАКАЛПАКСТАНА И СУЩЕСТВУЮЩАЯ ИНФРАСТРУКТУРА	174
Хошимова Камилла Навфал қизи	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MEXANIZMLARI: REKREATIONS TURIZM SOHASIDA QO'LLASH TAJRIBASI VA ISTIQBOLLARI	184
Najmitdinov G'ayratbek Sharifovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA VIRTUAL TA'LIM PLATFORMALARI: TEXNIK VA PEDAGOGIK TALABLAR, TIZIMLI TAHLIL VA IQTISODIY JIATLAR	189
Turayeva Adiba Ikramovna	
ICHKI AUDIT TIZIMI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	193
Nuridinova Barchinoy Xusniddin qizi	
MINTAQA IQTISODIYOTIDA SUV RESURLARIDAN FOYDALANISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	199
Xaitbaev Jasurbek Otaxanovich	
MINTAQANING EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMI	204
Raimboyeva Mashhura Davronbek qizi	
SURXONDARYO VILOYATIDA RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA XODIMLARNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	210
Jobborov Anvar Egamberdiyevich	
ISLOMIY MOLIVALASHTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELEKTNING DOLZARBLIGI	217
Nazarov Nodirjon Namoz o'g'li	
JISMONIY SHAXSLARNING MOL-MULKINI SOLIQQA TORTISH MASALALARI	222
Mamadjanov Shuxrat Jalolidinovich	
ENTREPRENEURSHIP AND BUSINESS MANAGEMENT IN UZBEKISTAN	225
Abdukhalikova Komila Abdukhalikovna	
BANKLARDA BARQARORLIKNI TA'MINLASH UCHUN RAQAMLI YECHIMLARNI TAKOMILLASHTIRISH	229
Saydamatova Muxlisabonu Rasuljon qizi	
PAXTA-TO'QIMACHILIK SANOATINI MODERNIZATSIYA QILISH YO'NALISHLARI: TAHLIL VA TAKLIFLAR	233
Abdullayev Hamidulla Abdug'ani o'g'li	
WAYS TO IMPROVE THE EFFICIENCY OF STATE FINANCIAL REGULATION MECHANISMS IN ENSURING THE CAPITALIZATION OF INSURANCE ORGANIZATIONS	238
Abdullaev Erkinjon Azamovich	
YASHIL IQTISODIYOTNI SHAKLLANTIRISHDA YASHIL MOLIVALASHTIRISHNING NAZARIY JIATLARI	245
Xalikov S. X.	



QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI BOZORIDA KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH	245
Xudayberganov Jasur Baxodirovich	
WAYS TO IMPROVE THE EFFICIENCY OF STATE FINANCIAL REGULATION MECHANISMS IN ENSURING THE CAPITALIZATION OF INSURANCE ORGANIZATIONS	251
Abdullaev Erkinjon Azamovich	
NATIJAVIYLIKKA YO'NALTIRILGAN BYUDJETLASHTIRISH JARAYONINING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	257
Allakuliyev Akmal Baltayevich	
SURXONDARYO VILOYATIDA RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA XODIMLARNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	261
Jobborov Anvar Egamberdiyevich	
TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA BOSHQARUV TIZIMINI RESURSLARNI OPTIMALLASHTIRISH ORQALI TAKOMILLASHTIRISH.....	268
Avulchayeva Feruza Jurakuziyevna	
BANKLARDA BARQARORLIKNI TA'MINLASH UCHUN RAQAMLI YECHIMLARNI TAKOMILLASHTIRISH.....	272
Saydamatova Muxlisabonu Rasuljon qizi	
ZAMONAVIY ISH JOYLARINI SHAKLLANTIRISHDA AYOLLARNING ROLI	276
Tulyaganova Aziza	
ISLOMIY MOLIALASHTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELLEKTNING DOLZARBLIGI.....	281
Nazarov Nodirjon Namoz o'g'li	
TURIZM MARKETINGINING NAZARIY ASOSLARI, ZAMONAVIY YO'NALISHLARI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI.....	286
Xamidov Otabek Bakidjanovich	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SOHASINING IQTISODIY KO'RSATKICHLAR TIZIMINI STATISTIK BAHOLASHNING USLUBIY JIHATLARI	290
Arzikulov Otabek Ali o'g'li	
ЭКОЛОГАМ ПОЧЕТ И УВАЖЕНИЕ	298
Максудова Шахиста	
DEBITOR VA KREDITOR QARZDORLIKNING MOHIYATI VA ULARNING O'ZGARISH TENDENTSIYALARI	304
Jo'raev Farruxbek Muxiddin o'g'li	
O'ZBEKISTONDA ISLOMIY MOLIALASHTIRISH XIZMATLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	307
Inomjonov Islomjon Iloxomjon o'g'li	
ENTREPRENEURSHIP AND BUSINESS MANAGEMENT IN UZBEKISTAN	311
Abdukhlikova Komila Abdukhlikovna	
МОБИЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ КАК СРЕДСТВО ФОРМИРОВАНИЯ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ БУДУЩИХ ИНЖЕНЕРОВ.....	315
Хурамова Фарангиз Учкун кизи	
ЦИФРОВИЗАЦИЯ НАЛОГОВ И АКЦИЗНАЯ РЕФОРМА УЗБЕКИСТАНА В ВТО	319
Дамир Рустамович Абдулов	
BANK TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR SHAROITIDA LIKVIDLILIK RISKINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	324
Alimov Baxtiyor Murodovich	
BANK AUDITINING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	335
Narziyev Xayotjon Azamatovich	
O'ZBEKISTON SUG'URTA SOHASIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH MASALALARI.....	343
Abdimuminova Saodat Taxirjonovna	
TO'QIMACHILIK SANOAT MAXSULOTLARI EKSPORT FAOLIYATI TAHLILI VA BRENDIDA LIDERLIK TUSHINCHALARI	352
Abdulazizova Xushnoza Nayabovna	



ИНСТИТУЦИОНАЛЬНО-ПРАВОВЫЕ МОДЕЛИ УПРАВЛЕНИЯ ОТХОДАМИ НА ОСНОВЕ ОПЫТА РАЗВИТЫХ СТРАН И ВОЗМОЖНОСТИ ИХ АДАПТАЦИИ В УСЛОВИЯХ УЗБЕКИСТАНА.....	357
Д. Мейлиева	
O‘ZBEKISTON AUDITORLIK TIZIMIDA KASBDOSHLAR TOMONIDAN BAHOLASH (PEER REVIEW) TIZIMINI JORIY ETISH ISTIQBOLLARI	361
Parpiyev Jaxongir Ilhomjonovich	
ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ И БОЛЬШИЕ ДАННЫЕ (BIG DATA) В УПРАВЛЕНЧЕСКИХ РЕШЕНИЯХ.....	366
Шарипов Бахтиёр Михлибаевич	
O‘ZBEKISTONDA SUVGA BO‘LGAN TALABNI VAQTLI QATORLAR ORQALI TAHLIL QILISH	375
Sarvar Mamasoliyev	
BOSHQARUV VA NAZORAT MAQSADLARIDA XARAJATLAR HISOBINI TASHKIL ETISH	383
Isomuxamedov Akbarjon Boxodir o‘g‘li	
MINTAQALAR BARQAROR RIVOJLANISHINI TA‘MINLASHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI.....	389
Salomat NOROVA	
O‘ZBEKISTON TURIZM BREND BOZORINING HOZIRGI HOLATI VA TENDENSIYALARI.....	394
Zufarov Akmal Gulamiddinovich	
INNOVATSION IQTISODIYOTDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH METODOLOGIYASI.....	404
Qodirov Baxodirjon Tursunovich	
O‘ZBEKISTON SOLIQ TIZIMINI MODERNIZATSIYA QILISHDA YAGONA INTERAKTIV DAVLAT XIZMATLARI PORTALINING O‘RNI VA AHAMIYATI	408
Dehqonov G‘ayratjon Raximovich	
OLIY TA‘LIM MUASSASALARIDA INNOVATSION HAMDA TIJORATLASHTIRISH MASALALARI	414
Inoyatov Mardonbek Mo‘min o‘g‘li	
OLIY IQTISODIY TA‘LIM ORQALI EKO-INNOVATSIYALAR VA “YASHIL” INVESTITSİYALARNI RAG‘BATLANTIRISH MEKANIZMLARI: SIYOSIY VA INSTITUTSIONAL DOIRALAR	418
Xasanova Zarina Maxamadaliyeva	
XODIMLAR MALAKASINI OSHIRISH — ZAMON TALABI.....	427
Narzullaev Oybek Narzullaevich	



XODIMLAR MALAKASINI OSHIRISH — ZAMON TALABI



Narzullaev Oybek Narzullaevich

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi
Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti qoshidagi
Alkogol va tamaki bozorini tartibga solish inspeksiya­si­ning
litsenziyalash bo'limi yetakchi mutaxassisi.
E-mail: mroybek199219@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy hisobotni xalqaro standartlar (IFRS) asosida yuritish jarayonining hozirgi holati, amalga oshirilayotgan islohotlar va mavjud muammolar tahlil qilingan. Tadqiqot davomida normativ hujjatlar tahlili, qiyosiy usul va tahlil usullaridan foydalanildi. Natijalar shundan dalolat beradiki, IFRSga bosqichma-bosqich o'tish milliy hisob tizimining shaffofligini oshirish, xorijiy investorlar uchun ma'lumotlarni taqqoslanadigan shaklda taqdim etish imkonini bermoqda. Shu bilan birga, malaka, axborot tizimlari va metodologik ta'minot sohasida bir qator muammolar saqlanib qolmoqda.

Kalit so'zlar: aksiyadorlik jamiyati, xalqaro moliyaviy hisobot standartlari, IFRS, moliyaviy shaffoflik, investitsiya muhiti.

Abstract. his article analyzes the current state of the process of maintaining financial reporting in Uzbek joint-stock companies based on international financial reporting standards (IFRS), the ongoing reforms and existing problems. The study used analysis of regulatory documents, comparative methods and analytical methods. The results indicate that the gradual transition to IFRS allows increasing the transparency of the national accounting system and providing data in a comparable form for foreign investors. At the same time, a number of problems remain in the field of qualifications, information systems and methodological support.

Key words: joint-stock company, international financial reporting standards, IFRS, financial transparency, investment climate.

Аннотация. В данной статье анализируется текущее состояние процесса ведения финансовой отчетности в узбекских акционерных обществах на основе международных стандартов финансовой отчетности (МСФО), проводимые реформы и существующие проблемы. В исследовании использовались анализ нормативных документов, сравнительные методы и аналитические методы. Результаты свидетельствуют о том, что постепенный переход на МСФО позволяет повысить прозрачность национальной системы бухгалтерского учета и предоставить данные в сопоставимом виде для иностранных инвесторов. В то же время сохраняется ряд проблем в области квалификации, информационных систем и методического обеспечения.

Ключевые слова: акционерное общество, международные стандарты финансовой отчетности, МСФО, финансовая прозрачность, инвестиционный климат.

KIRISH

Xodimlarning malakasini oshirish, ayniqsa bugungi raqobatbardosh mehnat bozorida, nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon xodimning kasbiy rivojlanishini ta'minlab, tashkilot faoliyatining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Malaka oshirish nafaqat xodimning professional o'sishiga, balki mehnat bozoridagi



raqobatni yengish, yangi lavozim va imkoniyatlarga erishish hamda ish unumdorligini yanada oshirishga keng yo'l ochadi. Shu orqali xodimlar o'z bilim va ko'nikmalarini yangilab boradilar, o'zlarini kasbiy rivojlanishga undaydilar va tashkilot uchun muhim bo'lgan malakali, qadrlanadigan mutaxassislarga aylanadilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida quyidagilarni ta'kidlab o'tgan:

"Bugun hayotning o'zi bizdan professional, tezkor va samarali davlat xizmati tizimini shakllantirishni, yangicha fikrlaydigan, tashabbuskor va el- yurtga sadoqatli kadrlar uchun keng imkoniyatlar yaratishni talab etmoqda."

O'zbekiston Respublikasidagi bozor islohotlarining o'ziga xos jihati shundaki, ularning barchasi inson taraqqiyotiga qaratilgan. Hozirgi sharoitda malaka oshirish tizimini takomillashtirish, malakali kadrlar tayyorlashning ko'p bosqichli tizimini rivojlantirish hamda bu yo'nalishda yangi konsepsiyalarni amaliyotga joriy etish iqtisodiyotda zarur siljishlarni amalga oshirishga xizmat qiladi. Bu jarayon, avvalo, inson omilining — asosiy ishlab chiqaruvchi kuch sifatida — iqtisodiyot va ijtimoiy sohalaridagi o'zgarishlarga doimiy moslashuvini ta'minlashga yordam beradi. Ayniqsa, ijtimoiy sohada olib borilayotgan islohotlarning natijalari bevosita malaka oshirish tizimida tayyorlanayotgan mutaxassis kadrlarning salohiyatiga bog'liqdir.

Shu bois mamlakat iqtisodiy rivojlanishining muhim ko'rsatkichlaridan biri — xodimlar malakasini oshirish tizimini tashkil etish va uni moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash hisoblanadi.

Ko'pgina davlatlarda malaka oshirishga yo'naltirilayotgan mablag'larning asosiy qismi davlat budjeti hisobidan moliyalashtiriladi. Shu bilan birga, budjetdan tashqari jamg'armalar, korxona va tashkilotlarning o'z mablag'lari, shuningdek, xorijiy investitsiyalar hamda jismoniy shaxslarning homiylik mablag'laridan ham samarali foydalaniladi.

O'zbekiston Respublikasida malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimini moliyalashtirishning quyidagi manbalari mavjud:

- davlat budjeti;
- buyurtmachilar bilan tuzilgan shartnomalar asosida tushadigan mablag'lar;
- maslahat xizmatlari hamda ta'lim sohasiga oid boshqa faoliyat turlari evaziga shakllanadigan mablag'lar;
- jamg'armalar, yuridik va jismoniy shaxslarning homiylik yoki maqsadli hayriya mablag'lari.

Davlat budjeti mamlakat iqtisodiy o'sishiga hissa qo'shuvchi eng muhim manbalardan biridir. U xodimlarning kasbiy malakasini oshirishni, o'z sohasida yetuk mutaxassislarni tayyorlashni va mehnat unumdorligini oshirishni ta'minlovchi asosiy moliyaviy resurs sifatida e'tirof etiladi.

Xodimlar malakasini oshirishni samarali tashkil etishda davlatning rolini belgilovchi ikkita asosiy omil mavjud. Birinchidan, bu — fuqarolarning umumiy ta'lim olish huquqini ta'minlash borasida davlatning mas'uliyatidir. Chunki jamiyat taraqqiyoti bevosita mamlakatning ta'lim salohiyati holatiga bog'liq. Ikkinchidan esa, ushbu mas'uliyatni jamiyat bilan o'zaro hamkorlikda taqsimlash zarurati bilan belgilanadi. Shu munosabat bilan davlat mehnat bozori ehtiyojlaridan kelib chiqib, yetuk mutaxassislarni tayyorlash jarayoniga resurslar yo'naltirishda o'z mas'uliyatini saqlagan holda, xodimlar malakasini oshirishni moliyalashtirish sohasida hamkorlik tamoyillarini kengaytirishga intiladi.

Jahon mamlakatlari ekspertlarining fikricha, xodimlar malakasini oshirish tizimini isloh qilishning muvaffaqiyati ushbu jarayonga ta'lim sohasi, davlat va biznes sektori kabi uch asosiy tomonning faol jalb etilishi hamda ularning o'zaro hamkorlik darajasiga bog'liqdir. Yuqori malakali mutaxassislarni esa nafaqat ichki mehnat bozorida, balki xalqaro miqyosda ham mamlakatning raqobatbardoshligini va obro'sini oshiruvchi muhim omil hisoblanadi. Shu sababli, bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnat bozorida malakali kadrlar salohiyatidan oqilona va samarali foydalanish dolzarb ahamiyatga ega.

Raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni moliyalashtirish va boshqarish tizimini xalqaro tajribalar asosida takomillashtirish lozim. Bunda, birinchidan, amaliyotda ta'lim, jumladan, xodimlar malakasini oshirishni moliyalashtirish mexanizmlarining samaradorligini oshirish uchun turli xil moliyaviy va tashkiliy sxemalardan foydalaniladi.

Ikkinchidan, malaka oshirishni moliyalashtirish tizimlarining xilma-xilligi kuzatiladi, ya'ni ularning barchasi yagona modelga kirmaydi, balki mamlakatning iqtisodiy sharoitlari va ta'lim tizimi xususiyatlariga qarab shakllanadi.

Uchinchidan, rivojlangan mamlakatlarda xodimlar malakasini oshirishni boshqarishning nomarkazlashgan (dezentralizatsiyalashgan) tizimlari ustunlik qiladi. Bu tizimlar milliy an'analar, siyosiy yondashuvlar va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga ko'ra farqlanadi. Ammo ularning umumiy jihati shundaki, malaka oshirishni boshqarishning turli darajalari o'rtasida qarorlar qabul qilish vakolatlari oqilona taqsimlangan bo'ladi. Ayrim mamlakatlarda bunday tizimlarda moliyalashtirish markazlashgan va nomarkazlashgan usullar uyg'unlashtirilgan holda amalga oshiriladi.

To'rtinchidan, malaka oshirishni nomarkazlashgan tarzda moliyalashtirishning turli tiplari va namunalari keng qo'llaniladi. Faqat ayrim mamlakatlarda xodimlar malakasini oshirishni davlat budjeti hisobidan markazlashgan holda to'liq moliyalashtirish amaliyoti saqlanib qolgan.



Beshinchidan, boshqaruv darajalari xodimlar malakasini oshirishni moliyalashtirishda o'z vakolatlari va ta'lim sohasidagi javobgarligi darajasiga muvofiq tarzda ishtirok etadi. Xodimlar malakasini oshirishning markazlashgan boshqaruv tizimiga ega davlatlarda moliyalashtirishda markaziy hukumatning roli ustuvor hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, rivojlangan mamlakatlarda malaka oshirish muassasalari va umuman ta'lim tizimini tashkil etish hamda uning barqaror va progressiv rivojlanishini belgilovchi eng muhim omillar quyidagilardan iborat:

- malaka oshirish markazlariga keng vakolatlar va erkinliklar berilgan bo'lib, ta'lim tizimini boshqarish va moliyalashtirish jarayoni markazlashmagan shaklda tashkil etiladi;
- malaka oshirish markazlarini qo'shimcha moliyalashtirish va jamoatchilik nazoratini ta'minlaydigan chuqur hamda tarmoqlangan sarmoya va vasiylik tizimi faoliyat yuritadi;
- malaka oshirish tizimini moliyalashtirishda takomillashtirilgan usullardan foydalaniladi, bunda o'quv dasturlari, rejalashtirilgan o'quvchilar soni va o'qitish parametrlaridagi tafovutlar hisobga olinadi;
- har bir xarajat moddasiga asoslangan moliyaviy me'yorlar xodimlar malakasini oshirish uchun budjetdan mablag' ajratishning asosiy mezonini belgilaydi;
- bozorning o'zgaruvchan sharoitlariga tez moslashishni, o'quv markazlari homiylari va vasiylarini rag'batlantirishni nazarda tutuvchi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar shakllangan.

"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ning izchil amalga oshirilishi natijasida O'zbekistonda malakali kadrlar tayyorlash tizimi samarali faoliyat yuritmoqda hamda uzluksiz ta'limni rivojlantirish va moliyalashtirish doirasi kengayib bormoqda.

Xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishga turlicha yondashuvlar mavjud. Ularning xilma-xilligiga qaramay, mazkur jarayonni quyidagi to'rt yo'nalishda mujassamlashtirish mumkin:

1. Qayta tayyorlash va malaka oshirish ehtiyojini aniqlash va tashkil etish.
2. O'quv dasturlarini ishlab chiqish va o'quv jarayonini puxta rejalashtirish.
3. Shakl va uslublariga ko'ra turli o'quv dasturlarini yaratish.
4. Qayta tayyorlash va malaka oshirish natijalarini tahlil qilish hamda bu jarayonlardan xodimlarning kasbiy va xizmat o'sishida samarali foydalanish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi yillarda kadrlar salohiyatini oshirish, ularni qayta tayyorlash va kasbiy rivojlantirish masalalari mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. MAVZUGA oid adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, xodimlar malakasini oshirish jarayoni mehnat bozori talablariga mos ravishda tashkil etilishi, inson kapitalining raqobatbardoshligini ta'minlashda hal qiluvchi omil sifatida qaraladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023-yil 11-sentabrda qabul qilingan PF-158-sonli¹ "O'zbekiston — 2030" strategiyasida inson kapitalini rivojlantirish, kadrlar malakasini oshirish tizimini modernizatsiya qilish, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish ustuvor vazifa etib belgilangan. Shu bilan birga, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" (1997-yil) ham mamlakatda uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirish, malaka oshirish va qayta tayyorlash mexanizmlarini joriy etish bo'yicha konseptual asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Xalqaro miqyosda ham bu masalaga katta e'tibor qaratilgan. Masalan, J. Becker (2018) o'zining "Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis" asarida inson kapitalining sifatini oshirish orqali iqtisodiy o'sish sur'atlarini jadallashtirish mumkinligini asoslaydi. P. Drucker (2016) esa o'z tadqiqotlarida bilim iqtisodiyotida muvaffaqiyatga erishish uchun doimiy o'qish va kasbiy rivojlanish zarurligini ta'kidlaydi.

T. Gabrichidze (2020) va Z. Madjidova (2019) o'z ilmiy ishlarida ta'lim tizimini iqtisodiy rivojlanishning muhim omili sifatida tahlil qilib, malaka oshirish jarayonlarini davlat, ta'lim muassasalari va biznes sektori o'rtasidagi hamkorlik asosida tashkil etish samarali natija berishini ko'rsatgan. Ularning fikricha, malaka oshirish tizimi faqat davlat siyosatining bir qismi emas, balki ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchi omildir.

Mahalliy tadqiqotchilar, jumladan A. Zokirov (2020) va M. Umarova (2021) O'zbekiston sharoitida raqamli texnologiyalar, axborot tizimlari va innovatsion ta'lim metodlarini joriy etish orqali malaka oshirish tizimini samarali tashkil etish zarurligini ta'kidlaydilar. Ularning fikriga ko'ra, raqamli iqtisodiyot sharoitida masofaviy ta'lim, onlayn treninglar va gibrid o'qitish modellari xodimlarning zamonaviy bilim va ko'nikmalarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Shuningdek, xalqaro tashkilotlar — UNESCO, ILO va World Bank hisobotlarida ham xodimlar malakasini oshirishning milliy iqtisodiyotlar raqobatbardoshligini oshirishdagi o'rni alohida ta'kidlangan. Xususan, ILO (2022) ma'lumotlariga ko'ra, doimiy o'qitish va qayta tayyorlash dasturlarini joriy etgan davlatlarda mehnat unumdorligi o'rtacha 15–20 foizga oshgan.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son <https://lex.uz/docs/-6600413>



Xulosa qilib aytganda, tahlil qilingan adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, kadrlar malakasini oshirish — bu nafaqat ta'lim tizimining muhim qismi, balki mamlakatning iqtisodiy barqarorligi va raqobatbardoshligini ta'minlovchi asosiy omildir. Zamonaviy yondashuvlarda malaka oshirish jarayonini davlat siyosati, nodavlat sektor va xalqaro tajriba bilan uyg'unlashtirish eng samarali yo'l sifatida e'tirof etiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda xodimlar malakasini oshirish tizimini takomillashtirish, moliyalashtirish mexanizmlarini baholash hamda xalqaro tajribani O'zbekiston sharoitiga moslashtirish maqsadida ilmiy tahlil, taqqoslash, iqtisodiy-statistik, tizimli yondashuv va empirik kuzatish usullaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida Prezident farmonlari, "O'zbekiston — 2030" strategiyasi, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", shuningdek ILO va World Bank ma'lumotlari tahlil qilindi. O'zbekiston va rivojlangan davlatlar tajribasi solishtirilib, malaka oshirish tizimining samaradorligi, moliyalashtirish manbalari va boshqaruv mexanizmlari o'rganildi hamda natijada tizimni modernizatsiya qilish va inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Amaliy tajriba shuni ko'rsatadiki, samarali faoliyat yuritayotgan kompaniya va aksiyadorlik jamiyatlarida xodimlarni qayta tayyorlash hamda malakasini oshirish bo'yicha tizimli ish olib borilganda, belgilangan maqsadlarga muvaffaqiyatli erishish mumkin. Buning uchun zarur o'quv-uslubiy baza va moddiy-texnik negiz yaratilgan bo'lishi muhim ahamiyatga ega.

Ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlarda malaka oshirishni moliyalashtirish tizimi bosqichma-bosqich mablag'larni maqsadli taqsimlashdan to bevosita moliyalashtirish shakllariga o'tmoqda. Bu jarayonda joriy xarajatlar uchun ajratiladigan mablag'lar oldindan belgilangan mezonlar — masalan, xodimlar soni yoki o'qitish sifati — asosida taqsimlanadi.

Jahonning ko'plab mamlakatlarida malaka oshirish o'quv markazlarini moliyalashtirish tizimi ularning o'rtasida sog'lom raqobatni kengaytirishga xizmat qilmoqda. "Pul o'quvchini izlaydi" tamoyili amaliyotga joriy etilib, moliyalashtirish miqdori markazning o'qitish sifati, o'quvchi-xodimlarning o'quv jarayonidan qoniqish darajasi va erishilgan natijalar asosida belgilanmoqda. Bu esa o'quv markazi rahbariyati va pedagoglar jamoasi uchun kuchli rag'batlantiruvchi omil bo'lib xizmat qiladi.

Umuman olganda, xorijiy mamlakatlarda malaka oshirish institutlariga ajratilgan mablag'larni ichki taqsimlash, pedagoglarni yollash, mehnatga haq to'lash, o'quv-uslubiy adabiyotlarni tanlashda yuqori darajada mustaqillik beriladi. Bunday yondashuv faqat yuqori natijalarga erishgan va barqaror rivojlanish ko'rsatkichlariga ega markazlarga nisbatan qo'llaniladi. Shu bilan birga, ta'lim sifatini oshirish, innovatsion o'qitish usullarini joriy etish va xalqaro standartlarga moslashish orqali markazlarning faoliyati izchil qo'llab-quvvatlanadi.

Xodimlar malakasini oshirish ta'lim tizimini rivojlantirish uchun yetarli miqdorda mablag' bilan ta'minlash chora-tadbirlari orasida malaka oshirish institutlarini davlat tomonidan moliyalashtirish samaradorligini oshirish, ularni har tomonlama modernizatsiya qilish hamda pullik malaka oshirish xizmatlari ulushini ko'paytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Davlat tomonidan moliyalashtirish tizimi islohoti muvaffaqiyatli amalga oshirilgan bir qator mamlakatlarda malaka oshirish institutlariga mablag' ajratishda ilgari qo'llanilgan an'anaviy usul — ya'ni o'tgan yilgi xarajatlarni asos qilib olish tizimi — o'rniga, har bir tinglovchi uchun tabaqalashtirilgan xarajat me'yorlarini belgilash amaliyotiga o'tilgan. Bu jarayonda o'qitish sohasi, o'quv dasturining murakkabligi, ta'lim sifati va boshqa mezonlar ham inobatga olinadi. Ayrim davlatlarda ushbu yondashuv yangi qo'shimcha ko'rsatkichlar kiritilgan holda yanada takomillashtirilmoqda.

Shu bilan birga, malaka oshirish institutlarini davlat tomonidan moliyalashtirishda samaradorlikni baholash mezonlari kengaytirilib bormoqda. Endilikda faqat tinglovchilar soni emas, balki test sinovlarida yuqori natija ko'rsatgan o'quvchilarning salmog'i ham hisobga olinadi. Shuningdek, institutlarning o'z faoliyatini takomillashtirish, samaradorlikni oshirishga qaratilgan loyihalar ishlab chiqishi, innovatsion tashabbuslarni ilgari surishi va ularning amaliy jozibadorligi ham muhim omil sifatida e'tiborga olinadi.

Bundan tashqari, byudjet mablag'larini ajratishda o'quv dasturlarining murakkablik darajasi, ta'lim samaradorligi, professor-o'qituvchilar malakasi, ilmiy darajaga ega mutaxassislar ulushi kabi mezonlar asosiy baholash mezonlaridan biri sifatida belgilanmoqda.

Xodimlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimini samarali tashkil etish hamda rivojlantirish uchun quyidagi yo'nalishlar muhim ahamiyat kasb etadi:

- malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimida yangicha tarkib, zamonaviy mazmun hamda samarali boshqaruv tizimini shakllantirish;



- yuqori malakali iqtisodchi-o'qituvchilarni tayyorlash va sohani malakali mutaxassislar bilan muntazam to'ldirib borish;
- raqobatga asoslangan muhitda faoliyat yurituvchi, samarali ishlashni ta'minlovchi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish;
- malaka oshirish va qayta tayyorlash ta'lim muassasalarini davlat attestatsiyasi hamda akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;
- ilg'or o'quv texnologiyalari, zamonaviy uskunalar hamda ilmiy yutuqlarga asoslangan amaliy o'qitish jarayonlarini yaratish va joriy etish.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, bugungi iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida xodimlar malakasini oshirish tizimini takomillashtirish mamlakatning iqtisodiy salohiyatini yuksaltirish, kadrlar bilim va tajriba darajasini kengaytirish, hamda byudjet va byudjetdan tashqari moliyaviy resurslardan samarali foydalanish zaruratini belgilab bermoqda.

Xodimlar malakasini oshirish tizimi mamlakat taraqqiyotida ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki davlatning iqtisodiy salohiyati va raqobatbardoshligi, avvalo, iqtisodchi kadrlarning bilim, malaka va tajriba darajasi bilan belgilanadi. Ana shu omillar natijasida mamlakatning xalqaro maydondagi iqtisodiy mavqei mustahkamlanadi, u rivojlangan davlatlar bilan teng raqobatlashish darajasiga yetadi. Shu sababli, xodimlar malakasini oshirish tizimini yanada rivojlantirish bugungi kunda dolzarb va ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

Xodimlar malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi ilmiy-amaliy xulosalarga kelindi:

1. Kasbiy yo'naltirish va malaka oshirishning ahamiyati.

Malaka oshirish va kasbga yo'naltirish jarayonlari xodimlar hamda yoshlarni turli kasb-hunarlar, korxona va tashkilotlarning faoliyat yo'nalishlari, mehnat sharoitlari bilan tanishtirish orqali samarali amalga oshiriladi. Kasb tanlash va kasbiy yo'naltirishning iqtisodiy samaradorligi kadrlar o'rnini barqarorlashtirish, mehnat unumdorligini oshirish va kasbiy tayyorgarlikka sarflanadigan vaqtni qisqartirish kabi ko'rsatkichlar orqali aniqlanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kasbga yo'naltirish tizimining puxta yo'lga qo'yilishi ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

2. Korxona kadrlar siyosatining roli.

Korxona faoliyatini takomillashtirishda, xodimlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirishda korxonada shakllangan kadrlar siyosati hal qiluvchi ahamiyatga ega. Kadrlar siyosati — bu xodimlar bilan ishlashning asosiy yo'nalishlari, mazmuni, shakllari va usullarini belgilovchi ilmiy asoslangan strategik tizimdir. U mehnat resurslarini boshqarish jarayonida asosiy talablarga yo'naltirilgan bo'lib, korxonaning raqobatbardoshligini va barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

3. Rahbariyatning kadrlar zaxirasini shakllantirishdagi o'rni.

Korxonaning yuqori bo'g'in rahbariyati kadrlar xizmatiga o'rta va yuqori lavozimlar bo'yicha ehtiyojlar to'g'risidagi axborotni yetkazib beradi. Bu ma'lumotlar asosida kadrlar zaxirasiga kiritilgan nomzodlarni tayyorlash muddati va rejaları ishlab chiqiladi. Mazkur jarayon inson resurslarini oqilona boshqarish va rahbarlik zaxirasini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

4. O'quv jarayonini samarali tashkil etish.

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash muassasalari o'quv jarayonini maqsadli tashkil etib, ta'lim shakli, uslublari va texnologiyalarini to'g'ri tanlash orqali tinglovchilarga samarali o'qish muhitini yaratadilar. Ushbu o'quv dasturlari buyurtmachilar ehtiyojlarini va davlat ta'lim standartlarini hisobga olgan holda ishlab chiqiladi, tasdiqlanadi va amaliyotda qo'llaniladi. Natijada, ta'lim sifati, o'quvchilarning kasbiy tayyorgarligi va ish bozoriga moslashuvchanligi oshadi.

5. Inson omili — islohotlarning markazida.

Inson, uning har tomonlama rivojlanishi, farovonligi va ijtimoiy faolligini ta'minlash bugungi islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchidir. Shaxs manfaatlarini ro'yobga chiqarish uchun samarali mexanizmlar yaratish, eskirgan ijtimoiy qarashlarni yangicha tafakkur bilan almashtirish — mamlakat taraqqiyotining poydevoridir.

6. Korxonalarda mustaqil kadrlar siyosatini yuritish.

Har bir korxona o'z imkoniyatlaridan kelib chiqib, mustaqil kadrlar siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish huquqiga ega. Shu bilan birga, bu jarayon insonning huquq va manfaatlariga zid kelmasligi zarur. Chunki har qanday siyosat — iqtisodiy yoki ijtimoiy yo'nalishdagi bo'lishidan qat'i nazar — inson va jamiyat manfaatlariga xizmat qilishi kerak. Bunday yondashuv nafaqat korxonaning, balki butun iqtisodiyotning barqaror o'sishiga zamin yaratadi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Shunday qilib, maqolani yozish jarayonida o'tkazilgan ilmiy tahlillar va umumlashtirilgan natijalar asosida quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimi faoliyatida yangicha tarkib, zamonaviy mazmun va samarali boshqaruv tizimini shakllantirish lozim. Bu orqali tizimning barqaror ishlashi, xodimlarning kasbiy salohiyatini oshirish va ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlash mumkin. Shu bilan birga, kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimida raqobatga asoslangan muhitni yaratish hamda samarali faoliyat yuritishni ta'minlovchi normativ-huquqiy bazani mukammallashtirish zarur. Bu, o'z navbatida, malaka oshirish muassasalari faoliyatida shaffoflik va natijadorlikni oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash ta'lim muassasalarini davlat attestatsiyasi hamda akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiqdir. Bu jarayon ta'lim sifatini nazorat qilish va uni doimiy takomillashtirish imkonini beradi. Iqtisodiyotning davlat va nodavlat sektorlaridagi tashkilot hamda muassasalar talab va ehtiyojlariga muvofiq, kadrlar va mutaxassislarni tezkor qayta tayyorlashni ta'minlovchi ta'lim muassasalarini tashkil etish va rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiyotning rivojlanishida ilg'or xorijiy tajribadan foydalanish, xodimlarning chet mamlakatlarda o'qish va malaka oshirishini tashkil etish hamda qo'llab-quvvatlash lozim. Bugungi kunda axborot texnologiyalari jadal rivojlanib borayotgan sharoitda zamonaviy kommunikatsiya vositalaridan samarali foydalanish xodimlar ish unumdorligini oshirishning muhim omili sifatida qaraladi. Shu bilan birga, mijozlarga xizmat ko'rsatish jarayonida talab darajasini o'rganish, ijtimoiy so'rovlar asosida iste'molchilar ehtiyojlarini aniqlash va bu asosda investitsiyalarni jalb etish tizimini yo'lga qo'yish lozim. Asosiy maqsad aholining manfaatlarini to'liq qondirish va xizmat sifatini oshirishdan iborat.

Iqtisodiyotning real sektorlarini rivojlantirishda axborot texnologiyalarining o'rnini aniqlash, ularni ishlab chiqarish jarayonlariga keng joriy etish va bu yo'nalishda tadbirkorlik subyektlari ehtiyojlaridan kelib chiqib chora-tadbirlarni ishlab chiqish zarur. Korxonaning har bir bo'limi faoliyatini tahlil qilib, past samaradorlikka ega yo'nalishlarni aniqlash, sabablarini bartaraf etish va zarur hollarda xodimlarning malakasini oshirish yoki lavozimini o'zgartirish orqali faoliyatni optimallashtirish lozim. Shuningdek, kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlashning uzluksizligini ta'minlash maqsadida masofaviy o'qitish shakllarini keng joriy etish zarur. Bu usul raqamli iqtisodiyot sharoitida ta'limning qulayligi va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

O'rta maxsus va oliy ta'lim muassasalari bilan tizimli aloqalar o'rnatish, tajribali pedagoglarni korxona xodimlari malakasini oshirish jarayonlariga jalb etish ham zarurdir. Bunday hamkorlik nazariya va amaliyot o'rtasidagi integratsiyani mustahkamlaydi hamda o'quv jarayonining sifatini yaxshilaydi. Ushbu takliflarni amaliyotga joriy etish sanoat korxonalarida xodimlar malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirishga, ishlab chiqarish jarayonlarining raqobatbardoshligini oshirishga va mamlakat iqtisodiy salohiyatini mustahkamlashga xizmat qiladi, deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston — 2030" strategiyasi. — www.lex.uz.
2. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", 1997-yil. — Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi nashriyoti.
3. Becker, J. (2018). Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis with Special Reference to Education. University of Chicago Press.
4. Drucker, P. (2016). The Effective Executive: The Definitive Guide to Getting the Right Things Done. Harper Business.
5. Gabrichidze, T. (2020). Higher Education Funding Strategies: Towards Equity, Efficiency, and Quality. European Scientific Journal, 18 (19), 20-29.
6. Madjidova, Z. (2019). Financing Higher Education in Post-Soviet Countries: A Comparative Perspective. Economics and Education, 4 (3), 53-68.
7. Zokirov, A. (2020). State Budget Expenditures on Tertiary Education in Uzbekistan: Trends and Efficiency. The Journal of Central Asian Studies, 12 (2), 89-105.
8. Umarova, M. (2021). O'zbekistonda raqamli ta'lim xizmatlarini takomillashtirish yo'llari. Economics and Education, 2 (3), 74-78.
9. International Labour Organization (ILO). Skills Development and Lifelong Learning Report – 2022. Geneva: ILO Publications.
10. UNESCO. Education and Skills for the 21st Century: Global Report 2022. Paris: UNESCO Publishing.
11. World Bank (2023). Human Capital Development and Skills Training: Global Insights. Washington D.C.: World Bank Group.
12. Narzullaev, O. N. (2025). Xodimlar malakasini oshirish — zamon talabi. (muallif ishlanmasi).



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
